XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 11-sentabr VII-11-86-8-111-K/25 Denov tumani

Denov tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni hududiy vakillik organlari faoliyatini o‘rganish Markazining 2025-yil 7-fevraldagi 22-06/574-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogeodeziya markazi Surxondaryo hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 8-avgustdagi Denov tumani hokimiga yuborilgan 01-117-sonli xat orqali ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Denov tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 1-avgustdagi 01-03/73-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Denov tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Denov tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Sariosiyo, Uzun, Sho‘rchi, Oltinsoy va Qumqo‘rg‘on tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yo‘l, va boshqa tabiiy hamda sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘iga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Xalq deputatlar Denov tumani Kengashining 2025-yil 16-yanvardagi “Denov tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida” VII-4-5-8-111-K/25-son qarori bekor qilinsin va o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashidan so‘ralsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qarorning tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi

ABRAROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 11-sentabrdagi
VII-11-86-8-111-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Denov tumanining chegara
TAVSIFI

Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo va Denov tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joydagi Cho‘libayir tog‘ tizmasida joylashgan nuqtani boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari38°29'0,009", sharqiy uzunlik koordinatalari 67°35'9,81").*

A dan B gacha Sariosiyo tumani yerlari bilan 1-18 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i Cho‘libayir tog‘ tizmasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1511 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 424 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 560 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 102 metr, keyin tog‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 737 metr masofani o‘tib, 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°30'10,25", sharqiy uzunlik 67°35'38,86").*

2-nuqtadan chegara tog‘ri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy yo‘nalishda 138 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 583 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 139 metr, so‘ngra quruq chegara chizig‘i orqali umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1735 metr, keyin tog‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 817 metr masofani o‘tib, Sangardak daryosi qirg‘og‘ida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°30'51,41", sharqiy uzunlik 67°36'52,05").*

3-nuqtadanchegara chizig‘i Sangardak daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4547 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°30'27,32", sharqiy uzunlik 67°39'22,43").*

4-nuqtadanchegara chizig‘i Sangardak daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4646 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°29'21,21", sharqiy uzunlik 67°41'52,96").*

5-nuqtadanchegara chizig‘i Sangardak daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6955 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°27'35,92", sharqiy uzunlik 67°45'10,77").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i Sangardak daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4475 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°26'35,67", sharqiy uzunlik 67°47'8,702").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i Sangardak daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3301 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 189 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°25'30,50", sharqiy uzunlik 67°48'46,99").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 973 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1333 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°24'51,67", sharqiy uzunlik 67°50'7,821").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 124 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 144 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 101 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1124 metr, keyin quruq chiziq orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 287 metr masofani o‘tib, 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°25'39,86", sharqiy uzunlik 67°50'12,01").*

10-nuqtadanchegara avval tog‘ri chegara chizig‘i orqali avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 286 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 354 metr, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 210 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°26'2,15", sharqiy uzunlik 67°50'21,99").*

11-nuqtadanchegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2966 metr, keyin soyni kesib o‘tib, tog‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 181 metr masofani o‘tib 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°26'4,973", sharqiy uzunlik 67°51'46,39").*

12-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 119 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 274 metr, so‘ng tog‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr, so‘ngra dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 540 metr masofani o‘tib, shu yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 1216 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 35 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°25'42,93", sharqiy uzunlik 67°52'43,38").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 790 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 537 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 435 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 810 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 627 metr masofada Oqqopchig‘ay kanalini kesib o‘tib, ariq bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°24'25,44", sharqiy uzunlik 67°53'33,39").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 242 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 421 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 723 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 361 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 240 metr masofani o‘tib, ariq

bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°24'21,91", sharqiy uzunlik 67°54'29,23").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 226 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 638 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 168 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 159 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 85 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°24'23,00", sharqiy uzunlik 67°55'12,24").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 141 metr, keyin qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2527 metr, so‘ng M-41 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 192 metr, so‘ngra qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2211 metr, keyin tog‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofani o‘tib, ariqga tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 64 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°24'44,91", sharqiy uzunlik 67°55'37,51").*

17-nuqtadanchegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1852 metr, keyin To‘palang daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 255 metr, so‘ng umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 6085 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘ida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°21'15,89", sharqiy uzunlik 67°58'28,76").*

B dan D gacha Uzun tumani yerlari bilan 18-27 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

18-nuqtadanchegara chizig‘i To‘palang daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 174 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 374 metr masofani o‘tib, Termiz, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo tumanlararo temir yo‘li kesib o‘tib,daryo qirg‘og‘ida joylashgan joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°21'8,300", sharqiy uzunlik 67°58'48,48").*

19-nuqtadanchegara avval tog‘ri chegara chizig‘i orqali Termiz, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo tumanlararo temir yo‘lini kesib o‘tib, To‘palang daryosiga tutashadi va daryoning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5894 metr masofada Surxondaryo daryosini kesib o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°18'40,00", sharqiy uzunlik 68°0'47,17").*

20-nuqtadanchegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1067 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°18'8,54", sharqiy uzunlik 68°0'28,99").*

21-nuqtadanchegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2186 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'0,52", sharqiy uzunlik 68°0'4,46").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval g‘arbiy yo‘nalishda 160 metr, keyin umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1748 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 151 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 736 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1195 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'35,73", sharqiy uzunlik 67°58'30,35").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1170 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'0,43", sharqiy uzunlik 67°58'32,23").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 239 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2781 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'43,13", sharqiy uzunlik 67°57'45,50").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8510 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 488 masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga *(shimoliy kenglik 38°9'41,65", sharqiy uzunlik 67°56'38,03").*

26-nuqtadanchegara chizig‘i Surxondaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3993 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2528 metr masofani o‘tib, daryo qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'57,61", sharqiy uzunlik 67°54'44,97").*

D dan E gacha Sho‘rchi tumani yerlari bilan 27-32 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

27-nuqtadanchegara chizig‘i Surxondaryo daryosini kesib o‘tib avval tog‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 390 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 130 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 255 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1161 metr masofada o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 728 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°7'50,38", sharqiy uzunlik 67°53'32,27").*

28-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 966 metr, keyin tog‘ri chegara chizig‘i orqali M-41 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 461 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 86 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 99 metr masofada Termiz, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo tumanlararo temir yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 485 metr

masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°8'40,40", sharqiy uzunlik 67°52'39,29").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 478 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 184 metr, so‘ng ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 645 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°9'10,32", sharqiy uzunlik 67°52'31,59").*

30-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 89 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 207 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 152 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 96 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°9'23,92", sharqiy uzunlik 67°52'28,95").*

31-nuqtadanchegara chizig‘i avval qishloq ichki yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 607 metr, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 256 metr, so‘ng umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3495 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'5,79", sharqiy uzunlik 67°50'42,42").*

E dan F gacha Oltinsoy tumani yerlari bilan 32-57 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

32-nuqtadanchegara chizig‘i avval shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 44 metr, keyin umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1905 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'38,26", sharqiy uzunlik 67°49'50,57").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4345 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'29,60", sharqiy uzunlik 67°48'55,66").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 188 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 611 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 46 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 204 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'51,73", sharqiy uzunlik 67°48'43,06").*

35-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1412 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'29,13", sharqiy uzunlik 67°48'19,76").*

36-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1319 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda189 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'51,75", sharqiy uzunlik 67°47'33,26").*

37-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 247 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 49 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 60 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 82 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'1,11", sharqiy uzunlik 67°47'23,34").*

38-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 145 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 99 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 95 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 344 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 84 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'12,71", sharqiy uzunlik 67°47'19,14").*

39-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval shimoliy yo‘nalishda 74 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 115 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 78 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 512 metr masofani o‘tib, Oqqopchig‘ay kanali bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'30,99", sharqiy uzunlik 67°47'23,05").*

40-nuqtadanchegara chizig‘i avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Oqqopchig‘ay kanalining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1105 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 922 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 717 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'32,69", sharqiy uzunlik 67°48'30,53").*

41-nuqtadan chegara chizig‘i Oqqopchig‘ay kanalini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2307 masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 42-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'50,02", sharqiy uzunlik 67°47'16,28").*

42-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 442 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 639 metr, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 697 metr, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 100 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 43-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'3,163", sharqiy uzunlik 67°47'0,32").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1100 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 44-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'29,30", sharqiy uzunlik 67°47'19,88").*

44-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 155 metr, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 652 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 45-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'41,95", sharqiy uzunlik 67°47'25,47").*

45-nuqtadan chegara chizig‘i avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 203 metr masofada ariqni kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 138 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr,

so‘ng shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 173 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 567 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'7,93", sharqiy uzunlik 67°47'10,58").*

46-nuqtadan chegara chizig‘i soyni kesib o‘tib ariqqa tutatashadi va ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 208 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 318 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 323 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 227 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 737 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi, va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 200 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 47-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'21,88", sharqiy uzunlik 67°45'56,30").*

47-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 322 metr, keyin soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 115 metr, so‘ng zovurning o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr, so‘ngra ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 236 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 207 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 48-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'19,69", sharqiy uzunlik 67°45'17,08").*

48-nuqtadanchegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 168 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 88 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 218 metr masofada soyni kesib o‘tib, soyga tutashadi va umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1875 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'19,69", sharqiy uzunlik 67°45'17,08").*

49-nuqtadanchegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4415 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'55,39", sharqiy uzunlik 67°43'10,48").*

50-nuqtadanchegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali soyni kesib o‘tib, avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1133 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 992 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2514 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1165 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°19'35,01", sharqiy uzunlik 67°41'1,17").*

51-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4512 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 127 metr, so‘ng soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 100 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 171 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 487 metr masofani o‘tib 52-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'41,69", sharqiy uzunlik 67°38'29,70").*

52-nuqtadanchegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 681 metr, keyin dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 530 metr, so‘ng shimoliy

yo‘nalishda 99 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 111 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 47 metr, so‘ng umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 191 metr masofani o‘tib 53-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'30,42", sharqiy uzunlik 67°37'39,82").*

53-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 211 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 74 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 47 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 67 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 40 metr, so‘ng dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 71 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 104 metr masofani o‘tib 54-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'27,41", sharqiy uzunlik 67°37'24,60").*

54-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 40 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 68 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 138 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 218 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘ida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'29,07", sharqiy uzunlik 67°37'13,46").*

55-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali soyni kesib o‘tib avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 784 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1844 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1958 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 414 metr masofani o‘tib 56-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°19'0,28", sharqiy uzunlik 67°34'37,21").*

56-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 193 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 78 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 249 metr, so‘ngra to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 420 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 994 metr masofani o‘tib,Oqsuv soyiga qirg‘og‘ida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°18'32,55", sharqiy uzunlik 67°33'37,46").*

F dan G gacha Qumqo‘rg‘on tumani yerlari bilan 57-1 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

57-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy shimoliy yo‘nalishda Oqsuv soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan barcha burulishlarini hisobga olgan holda 8490 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1256 metr, so‘ng Cho‘libayir tog‘ tizmasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1790 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 58-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°23'21,60", sharqiy uzunlik 67°33'59,61").*

58-nuqtadan chegara chizig‘i Cho‘libayir tog‘ tizmasi bo‘ylab avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 247 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 3971 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, tog‘ tizmasi bo‘yidagi 59-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°26'10,60", sharqiy uzunlik 67°35'6,87").*


59-nuqtadan chegara chizig‘i Cho‘libayir tog‘ tizmasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 964 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 393 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 2118 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 309 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2300 metr masofani o‘tib,

tog‘ tizmasi bo‘yidagi 1-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°29'0,009", sharqiy uzunlik 67°35'9,81").*

Xalq deputatlari Denov tumani
Kengashining
2025-yil 11-sentabrdagi
VII-11-86-8-111-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Denov tumani ma'muriy hududiy chegarasini belgilash ishlari bo'yicha

KARTOGRAFIK CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha	*Sariosiyo tumani yerlari*
B dan D gacha	*Uzun tumani yerlari*
D dan E gacha	*Sho'rchi tumani yerlari*
E dan F gacha	*Oltinsoy tumani yerlari*
F dan A gacha	*Qumqo'rg'on tumani yerlari*

Shartli belgilar

1 — Chegaraning burilish nuqtalari

Tumanlar chegarasi